



Qissada noverbal vositalarning qo'llanishi

Abdushukurova Gulrux Abduaziz qizi

SamDU Filologiya fakulteti Lingvistika
(o'zbek tili yo'nalishi) 2- kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada nutqiy akt haqidagi ilmiy qarashlar, pragmalingvistika sohasida o'rganilgan tomonlari keltirilib, Shoyim Bo'tayevning qissalaridan keltirilgan ayrim misollar orqali ochib berilgan. Shuningdek, nutqiy aktning xabar, buyruq, ta'kid kabi turlariga ham alohida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Nutqiy akt, pragmalingvistika, adresant, adresat, muloqat jarayoni, boshlang'ich intensiya, natijaviy intensiya, xabar akti, buyruq akti, so'roq akti, verbal, noverbal vositalar.

Muloqotga kirishar ekanmiz, biz nafaqat so'zlar vositasidagi axborotni tinglaymiz, balki bir-birimizning ko'zlarimizga qarab, ovoz tembrini, intonatsiyani, mimikani, jestlar orqali ham bir-birimizni anglaymiz, o'zaro suhbatlasha olamiz. So'zlar bizga mantiqiy axborotni uzatsa, jestlar, mimika, ovoz ushbu axborotni to'ldiradi.

A.Nurmonov: “O'zbeklarda substitutiv funktsiya bajara oladigan imo-ishoralar har qanday informatsiyani ifodalamaydi; ularning vazifa doirasi nihoyatda cheklangan; asosan kundalik og'zaki aralashuv uslubi bilan bog'liq”, – deb uqtiradi¹.

M.Saidxonov esa “Aloqa-aralashuv va imo-ishoralar” nomli asarida kommunikativ jarayon uchun xizmat qiluvchi ma'lum axborotni uzatish vositalaridan bo'lgan ramzlar, shartli belgilar, morze tili, ishoralar va boshqa bir qancha vositalar borki, ular ichida til tabiiy, shu til sohiblari uchun tushunarli, tayyor holdagi aloqa vositasi sanalishini aytib, ishoralar, mimika, ovozdagi turli holatlar va gavda harakatlari aloqa-

¹ Nurmonov A. Tanlangan asarlar. 1-jild. – T.: Akademnashr, 2012. – B. 161.



aralashuv vazifasini bajarishdan qat'i nazar kommunikatsiyada ikkilamchi vosita vazifasini bajarishini ta'kidlaydi².

Tana harakatlari orqali noverbal muloqot:

Amaki beozorlik bilan yelka qisdi. Amaki devorga suyanib, tog'larga o'girgancha, lekin qo'li bilan u tomonga ishora qilib paydarpay so'ylay ketdi (Sho'rolardan qolgan odamlar. 328)

Misollardagi *yelka qisdi* bilmaslik ma'nosini, *qo'li bilan u tomonga ishora qilib* ko'rsatmoq ma'nosini anglatib kelgan.

Butun dunyoda kommunikatsion jestlar bir-biridan farq qilmaydi. Insonlar baxtli bo'lgan vaqtida tabassum qiladi, xafa bo'lganlarida xo'mrayadilar, jahllari chiqqanda jahldor nigoh bilan qaraydilar. Ayrim jestlarning kelib chiqishini ilk jamoatchilik davrlaridan kuzatishimiz mumkin. Irjayish (tishining oqini ko'rsatish) raqibga tashlanish vaqtida saqlanib qoladi va zamona insoni tomonidan boshqaning ustidan kulganda yoki o'z nafratini ifodalaganida qo'llaniladi. Tabassum dastlab tahdid ramzi bo'lgan, bugungi kunda esa boshqa do'stona jestlar uyg'unligida mamnunlik yoki do'stona munosabatni bildiradi. Verbal tillar bir-biridan madaniyatga ko'ra farqlangani kabi bir millatning noverbal tili boshqa bir millatning noverbal tilidan ajralib turadi. Muayyan bir jest ma'lum bir millat tomonidan umumqabul qilingan bo'lib, aniq bir talqinga ega bo'lishi va ayni vaqtda boshqa bir millatda hech qanday ma'no anglatmasligi yoki mutlaqo qarama-qarshi ma'no ifodalashi mumkin.

Qo'lni ko'ksiga qo'yish. Asosan, minnatdorlik belgisi, bundan tashqari, mamnunlik, uzr so'rash, iltimos kabi so'zsiz ifodalanadigan ma'nolarni ifodalab keladi. Ovoz chiqarib salom berilganda ham doimo qo'l yurak tomonida, ko'krak ustida bo'ladi. Bu boshqa millatlarda boshqacha. Masalan, *Quchog'ini keng ochib kelishiyam shundan edi (Eski arava, 5)*. Nishonboy Hurzamonovich tuyqusdan o'zining odob-axloqiga yarashmagan qiliq qildi: *sal engashib tizzasining ko'ziga bir-ikki shapatiladi (Eski arava, 144)*.

² Saidxonov M. Aloqa-aralashuv va imo-ishoralar. –T.: Fan, 2008. – B. 3,18.



Boshni oldinga irg'ish. Oldiga chaqirish, tushunganini anglatish ma'nolarini anglatadi. Masalan, hindlarda boshni ikki yonga qimirlatsa, shu ma'no anglashiladi. Umuman har qanday madaniyatda nosamimiylik jestlari odatda chap qo'l bilan bog'liq, negaki o'ng qo'l "madaniylashgan", u kerak ishni qiladi, chap qo'l esa sohibining sirlarini oshkor etib, xohlaganini qiladi. SHuning uchun agar suhbat jarayonida chapaqay bo'lmagan suhbatdosh chap qo'l bilan jestlar qilsa, katta ehtimol bilan u o'ylayotgan narsasini gapirmayapti yoki sodir bo'layotganlarga nisbatan salbiy munosabatda. Ba'zan jestdagi arziyas o'zgarish ham uning ma'nosini butunlay o'zgartirib yuborishi mumkin. Turli madaniyatli xalqlarida suhbatdoshlar o'rtasidagi optimal masofa xususida turlicha tasavvurlar mavjud. Masalan, nemislar 60 santimetrdan yaqin bo'lmagan masofada turib, suhbat olib boradilar. Arablar uchun esa bu masofa muloqot uchun juda uzoq. O'zaro notanish arab va nemisning suhbat jarayonini kuzatsangiz, birinchisining tobora yaqinlashishga intilishini, ikkinchisining esa o'zining olib qochishini ko'rishingiz mumkin. Bu o'rinda nemisning arab xususidagi taassurotlarini bilmoqchi bo'lsangiz, uning bosim o'tkazuvchiligini, yaqin aloqalar o'rnatishga da'vogarlik qilayotganligi aytadi. Arab esa o'z suhbatdoshini kibrli va odamovi sifatida baholashi mumkin. Ikkalasi ham bu o'rinda xato mulohaza qiladi, zero har ikkalasi uchun ham maqbul muloqot masofasi buzilgan. Turli xalqlar muloqot jarayonida qarashlarni ham turlicha ishlatadilar. Bu masala bilan shug'ullangan etnopsixologlar insoniyat sivilizatsiyalarini ikkiga ajratishgan: "kontaktli" va "kontaktsiz". "Kontaktli" madaniyatlarda qarash suhbat va muloqotda muhim ahamiyatga ega, jumladan yaqin masofa kabi. Bu madaniyatlarga arablar, lotin amerikaliklar, Evropa janubi xalqlari kiradi. Ikkinchi guruh, ya'ni "kontaktsizlar"ga hindlar, pokistonliklar, yaponlar va shimoliy evropaliklar kiradi. YAponlar suhbatlashganda suhbatdoshining bo'yniga qaraydilar. To'g'ri nigoh ular fikricha, odobsizlikdir. Boshqa xalqlarda esa, masalan, arablarda suhbatdoshning yuziga qarash shart. Bolalarga yoshlikdan yuziga qaramay gaplashish odobsizlik deb o'rgatishadi. O'zbeklarda ham farzandlar odatda, ota-onasining ko'ziga tik qaramasdan erga qaragan holatda suhbatlashadi. Xususan, ayol kishi ham nomahram (eridan boshqa) kishilarning ko'ziga



qaramasdan suhbatlashadi. SHu tariqa suhbatdoshiga kam qaraydigan suhbatdosh “Kontaktli” madaniyat vakillariga nosamimiy va sovuq bo‘lib tuyuladi, “kontaktsiz” suhbatdoshga esa “kontaktli” xira, tegajoq va hatto, bezbet bo‘lib tuyuladi. Ammo ko‘plab xalqlarda yozilmagan qonun, o‘ziga xos tabu bor. Unga ko‘ra, boshqa odamni sinchkovlik bilan kuzatish, ayniqsa, notanish odamni.

Masalan, *Bilaman, - deya bo‘ynini egdi chiqib ketayotgan Selifan; ammo buyruqni bajarmasa Pevel Ivanovich uni nima qilishini bilmasdi (Eski arava, 4).*

Ostonada bo‘ynini g‘ozday cho‘zib Selifan turardi (Eski arava, 4).

Qo‘llar orqali ta’sir o‘tkazish. Bunday holat insonning tinglovchiga, suhbatdoshiga, nisbatan g‘azabini, alamini “senimi, shoshmay tur” qabilida ifoda etishini namoyon etadi. Masalan,

Tushuntirolmadi shekilli, qo‘llarini silkib-silkib gapirdi, ta’sir o‘tkazsin, dedi-yov...(Sho‘rodan qolgan odamlar, 365)

Yuqorida keltirilgan misolda yozuvchi bunday noverbal vositani qay maqsadda qo‘llaganiga urg‘u berib ketadi.Ya’ni, “ta’sir o‘tkazsin dedi-yov” Demak, asardagi kontekstdan shunday mazmun anglashiladiki, Amaki unga qarshi kelayotgan kishilarni atay g‘azabdan tushirish maqsadida qo‘l ifodalaridan foylangan. Bunda masofa uzoq bo‘lsa ham, suhbatdoshiga o‘z nutqini ta’sirchan holatda yetkazganligini ko‘rishimiz mumkin.

Qo‘l barmoqlarini birlashtirib, musht ko‘rsatish. Bunday noverbal vosita, odatda , g‘azabni “senim, shoshmay tur!” qabilida ifodalashda ishlatiladi. Shoyim Bo‘tayev qissalarida ham xuddi shunday mazmuniy butunlikni ifoda etishda foydalanilganligini ko‘rishimiz mumkin. Masalan,

Ular etaklaridagi toshlarini yerga to‘kishdi.

Etaklarini silkishdi.

Churvaqalar amaki o‘tirgan o‘tinxonaga qarab mushtchalarini do‘laytirib qo‘yishdi.

Shundan so‘ng ular tog‘ tomonga ketaverishdi. (Sho‘rodan qolgan odamlar, 365).



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Safarov Sh. Pragmalingvistika. –T., 2008.
2. Воронин С. Фоносемантические идеи в зарубежной языкознании. –Л., 1999.
3. Hakimov M.,Gaziyeva M.,Pragmalingvistika asoslari .-T., 2020.
4. Bo‘tayev Sh.Shamol o‘yini, qissa –T ., 2000.
5. Bo‘tayev Sh.Muyulishdagi uy ,qissa –T., 2000.